

**AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARINING IMTIYOZLI  
SOTIB OLISH HUQUQINI HIMOYA QILISH VOSITALARI**

*Xakimjonova Feruza Baxromjon qizi*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlari aksiyadorlarining aksiyalarni imtiyozli sotib olish huquqi tushunchasi, imtiyozli sotib olish huquqdan foydalanish asoslari va himoya qilish vositalari tahlil qilinadi. Imtiyozli sotib olish huquq ishtirokchilarning korporativ huquqlarining biri sifatida, bugungi kunda bu huquqning buzilishi yuzasidan bir qator korporativ nizolar vujudga kelmoqda. Aksiyadorlarning qonuniy manfaatlarini to'laqonli ta'minlash, korporatsiya ishtirokchilari tarkibini nazorat qilishda imtiyozli huquq muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, aksiyalarni uchinchi shaxslarga o'tishi jamiyat boshqaruvida korporativ nazoratni ham o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Ushbu maqolada aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqdan foydalanish tartibi buzilgan taqdirda vujudga kelgan nizolarni hal qilish tartibi va mexanizmi, sudlar tomonidan bu turdagi korporativ nizolarni hal qilishda qaysi jihatlarga e'tibor qaratishi lozimligi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Aksiyadorlik jamiyati, xo'jalik jamiyati, aksiyador, korporativ huquq, imtiyozli huquq, aksiya, ulush.

**KIRISH**

Ayni paytda aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha sud amaliyoti ancha faol rivojlanmoqda, korporativ va protsessual qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Amalda, qoida tariqasida, aksiyadorlarning huquqlarini buzilishi to'g'risidagi da'volar aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitalini ko'paytirish yoki kamaytirish, jamiyatning ta'sis hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish, dividendlar to'lamaslik, jamiyatni boshqarish, oldi-sotdi bitimlarini tuzish, aksiyalarni sotish, aksiyadorlik jamiyati aksiyalarini uchinchi shaxslarga sotish kabi holatlardan vujudga kelmoqda. Shular orasidan aksiyadorlarning aksiyalarni sotib olish jarayonidagi "imtiyozli huquqi", uni amalga oshirish tartibi va himoya qilish mexanizmi bilan tanishamiz.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Aksiyadorlarning aksiyalarni imtiyozli sotib olish huquqi to'g'risida bir qator qarashlar mavjud. Aksiyadorlik jamiyatlaridagi aksiyadorlarning imtiyozli sotib olish huquqi korporativ huquqlaridan biri sifatida ishtirokchilarning huquq va manfaatlarining muhim kafolati hisoblanadi. Huquqshunos olimlarning fikriga ko'ra imtiyozli sotib olish – korporatsiya ishtirokchilarining iqtisodiy imkoniyatini qayta taqsimlash sifatida ko'riladi [1]. Korporativ huquqiy munosabatlarda imtiyozli sotib olish huquqini amalga oshirishning ayrim xususiyatlari, shuningdek, uning katta amaliy ahamiyati uni alohida ko'rib chiqishni talab qiladi. Korporativ huquqiy munosabatlarda sotib olishning imtiyozli huquqi, umumiy mulkiy munosabatlardagi o'xshash huquqiy imkoniyatdan farqli o'laroq, o'zining sezilarli xususiyatlarini o'z ichiga olgan holda bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu, bizning fikrimizcha, imtiyozli huquq institutini joriy etish maqsadlari bilan bog'liq.

Korporativ huquqiy munosabatlarda sotib olish bo'yicha imtiyoz ta'sischi tarkibini cheklash va ularning yuridik shaxsning ustav kapitalidagi ishtiroki ulushini saqlab qolishdan manfaatdorlikni

ta'minlaydi, Korporativ munosabatlarning har qanday subyektining sotib olishda imtiyozli huquqni amalga oshirishdan maqsad, birinchi navbatda, bunday shaxsning korporatsiyadagi ishtiroki ulushini oshirishdir, bu esa, o'z navbatida, uning nazorat ta'siri darajasiga hal qiluvchi ta'sir qiladi. Ya'ni imtiyozli sotib olish mexanizmini bilvosita korporativ nazorat bilan bog'liqdir. Binobarin, korporativ nazorat bir yoki bir guruh aksiyadorlar qo'lida yirik paket aksiyalarni jamlanishini anglatibgina qolmay, ushbu aksiyador(lar) tomonidan jamiyatning uzoq muddatli maqsad va dasturlariga, strategiya va siyosatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishni anglatadi [2]. **D.Stepanovning** fikricha korporativ nazorat quyidagi ikki shaklda yaqqol namoyon bo'ladi:

- Yuridik shaxsning organlarini tuzish: boshqaruv, direktorlar kengashi, kengashni shakllantirish va boshqarish;
- Jamiyatga tegishli bo'lgan mulkni tasarruf e'tishga ta'sir qila olish [3].

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, aksiyalarni sotib olish orqali jamiyatga uchinchi shaxslarning kirishi va uning jamiyat boshqaruviga ta'sir qilishi mumkin. Shuni oldini olish maqsadida "aksiyalarni imtiyozli sotib olish" qoidalari korporativ huquqlarning himoyasi sifatida kitilgan deyishimiz mumkin.

Milliy qonunchiligimiz bo'yicha aksiyadorlarning imtiyozli sotib olish huquqi "*Aksiyadorlik jamiyati va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida*"gi Qonunning 6-moddasida quyidagicha ifodalangan: Aksiyadorlar soni ellikdan oshmagan taqdirda, jamiyat ustavida imtiyozli huquq nazarda tutilishi mumkin:

- aksiyadorlarda, ushbu jamiyatning boshqa aksiyadorlari tomonidan uchinchi shaxsga ularning har biriga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taklif qilingan narxda va shartlarda sotiladigan aksiyalarni sotib olish uchun;
- jamiyatda, uning aksiyadorlari tomonidan sotiladigan aksiyalarni sotib olish uchun, agar ushbu jamiyatning boshqa aksiyadorlari o'zlarining imtiyozli huquqlaridan foydalanmagan bo'lsa [4].

Demak, yuqoridagi moddadan ma'lumki, imtiyozli huquq aksiyadorlar soni 50 nafardan oshmagan holatda jamiyat ustavida belgilangan bo'lishi kerak. Shuningdek, 35-moddaga ko'ra faqatgina ovoz beruvchi aksiya egalari bu huquqdan foydalanishi mumkin. Qonunchilikda imtiyozli huquqdan foydalanish muddati ham nazarda tutilgan. Jumladan, aksiyadorlar sotayotgan aksiyalarni olishga doir imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi va muddatlari jamiyat ustavida belgilanadi, bunda imtiyozli huquqdan foydalanish muddati aksiyalar sotuvga qo'yilgan paytdan e'tiboran o'n kundan kam va o'ttiz kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Qonunchiligimizda imtiyozli huquqdan foydalanish tartibi ham belgilab berilgan bo'lib, unga ko'ra jamiyat aksiyalarning yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish orqali o'zining imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyadorlariga aksiyalarni yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni mazkur aksiyadorlarda mavjud bo'lgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda teng shartlarda, qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilgan jamiyatning boshqaruv organi tomonidan belgilangan joylashtirish narxi bo'yicha olishni taklif etishi shart. Xabarda joylashtirilayotgan aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni, ularni joylashtirish narxi, har bir aksiyador olishga haqli bo'lgan aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning sonini aniqlash tartibi, aksiyadorlarning bu huquqi amal qiladigan muddat va uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni olishi to'g'risida o'zining rekvizitlari, o'zi oladigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to'laganlik to'g'risidagi hujjatni jamiyatga yuborish orqali o'z imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishga haqli. Bunday ariza mazkur imtiyozli huquqning amal qilish muddati ichida jamiyatga taqdim etilishi kerak.

Jamiyat imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugaguniga qadar aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni ularni olish bo'yicha imtiyozli huquqqa ega bo'lmagan shaxslarga joylashtirishga haqli emas.

Shuningdek, aksiyadorlarning bu huquqdan foydalanish huquqi buzilgan taqdirda, yuqoridagi qonunning 6-moddasi uchinchi xatboshisiga asosan sudga murojaat qilish huquqiga ega. Da'vo muddati ham nazarda tutilgan bo'lib, bunda aksiyador tomonidan o'ziga tegishli aksiyalar imtiyozli huquq buzilgan holda sotilgan taqdirda, jamiyatning istalgan aksiyadori va (yoki) jamiyat bunday qoidabuzarlik to'g'risida aksiyador yoki jamiyat bilgan yoxud bilishi lozim bo'lgan paytdan e'tiboran uch oy ichida o'ziga sotib oluvchining huquq va majburiyatlari o'tkazilishini sud tartibida talab qilish huquqiga ega.

## XULOSA

Korporativ nizolarni adolatli va to'g'ri hal qilish jarayonida sudlar Iqtisodiy protsessul kodeks va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 20.06.2014 yildagi 262-sonli "Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining tavsiyalariga tayanishadi. Biroq, bu hujjatlarda "imtiyozli huquq" to'g'risida qoidalar alohida ifodalanmaganligi uchun, bugungi kunda bu turdagi nizolarni ko'rib chiqishda bir qator qiyinchiliklar uchramoqda. Shu bois, bizningcha, sudlar tomonidan aksiyalarni imtiyozli sotib olish masalasidan kelib chiqadigan nizolar ko'rilyotganda aksiyadorning imtiyozli huquqqa haqiqatdan egaligi, aksiyalarni sotib olish to'g'risida aksiyadorlarga qonunda ko'rsatilgan muddatlarda xabar berilganligi, shuningdek, da'vo muddati o'tmaganligi masalalariga e'tibor qaratishi lozim.

## REFERENCES:

1. Колосов, А. В. (2009). Преимущественное право в корпоративных отношениях. *Проблемы экономики и юридической практики*, (5), 121-123.
2. Афанасьева, Е. Г., Бакшинская, В. Ю., Губин, Е. П., Дедов, Д. И., Карелина, С. А., Лаутс, Е. Б., ... & Шиткина, И. С. (2015). Корпоративное право.
3. Степанов, Д. (2006). Поглощение, осуществляемое путем приобретения крупного пакета акций, и вытеснение миноритарных акционеров. *Хозяйство и право*, (4), 3-18.
4. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyati va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ – 370-son, 06.05.2014y. <https://lex.uz/docs/-2382409>